

Boshlang'ich sinflarga ona tili o'qitishning ilmiy-metodik asoslari

Mehriniso Alijon qizi Aminova
Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada metodlar nima, usullar nima uchun kerak, uning maqsad va vazifalari, muammolar va dolzarb masalalari, hozirgi davrda metodlarning ta'limga juda katta ta'siri borligi, metodlarning ijobiy va salbiy tomonlari hususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: metod, globallashuv, didaktik, nazariya, falsafiy, interfaol, interaktiv, charxpalak, zinama-zina, davra suhbat, kreativ metodlar

Scientific-methodical foundations of teaching native language to primary classes

Mehrinisa Alijon kizi Aminova
Kattakorgan Branch of Samarkand State University

Abstract: This article talks about what methods are, why methods are needed, its goals and tasks, problems and current issues, the fact that methods have a great influence on education at the present time, the positive and negative aspects of methods.

Keywords: method, globalization, didactic, theory, philosophical, interactive, interactive, charkhpalak, step-by-step, round discussion, creative methods

So'z ichra mudom aql yashirindur, So'z chimildig'u aql kelindur! (Nosir Xisrav)

Hozirgi globallashuv davrida mahoratli o'qituvchilarning bilimi, ko'nikmasi, dars o'tishi zamon talabiga javob berishi kerak. Ma'lumotlarni o'quvchilarga tushuntirishda ayni biror bir usullardan foydalanish bolalarga mavzuni yanada oson va tushunarli bo'lishiga yordam beradi. Bunday vazifani bajarish uchun esa pedagog xodim darslarda metodlardan, har xil o'yinlar yordamida dars o'tish uslublaridan foydalanishi kerak. "Metod" so'zi bizga yunon tilidan kirib kelgan bo'lib, bilish, tadqiqot yo'li, nazariya, ta'limot kabi bir qancha ma'nolarni anglatadi. "Metod" tushunchasi falsafiy va didaktik ma'nolarga ega. "Metod" falsafiy ma'noda jamiyat va tabiat hodisalarini kuzatish va ayni o'sha voqea-hodisaga ilmiy tomondan yondashish. Endi didaktik tomonini aytadigan bo'lsak "metod" bu o'quvchilarni bilim va ko'nikma orttirishidir. Ta'limning samaradorligi ko'p jihatdan o'qituvchi

tomonidan didaktik jarayonni to'g'ri tashkil etishga bog'liq. Didaktik vositalarga nimalar kiradi? Didaktik vositalarga biz bir qancha narsalarni misol keltirishimiz mumkin. Jumladan: tarqatma materiallar, ayni biror fanni o'qitishda kerak bo'ladigan jihozlar, maketlar, ko'rgazmali qurollar, modellar va hokazo. Demak o'qituvchi mana shunday didaktik vositalardan, ya'ni metodlardan foydalanib dars o'tishi ham o'qituvchiga, ham o'quvchiga qulay. "Metod" usullar majmuidan iborat. Usul o'zi nima degan savol tug'iladi? Usul bu-biror ishni amalga oshirish yo'li, harakat tarzi, xili, tartibini anglatadi. Boshlang'ich sinflarda ona tili va adabiy ta'limni o'qitish metodikasi fan sifatida o'zining o'rganish obyektiga ega bo'lib, u o'quvchilarga bilim berishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda samarali metod va vositalarni tanlash, ularni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, o'qitishning samaradorligini oshirish kabi masalalar bilan shug'ullanadi. 2020-yil 2-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev jahon miqyosida "O'qish va uni tushunish sifati" bo'yicha olib borilayotgan tadqiqot dasturini o'rganish bo'yicha ta'lim muassasalariga ko'rsatma berdi. Yurtimizda 2021-yildan boshlab Pisa va Pirls kabi nazorat dasturlarini hayotga tatbiq etish ishlari olib borilmoqda. Ta'lim sifatini butun dunyo standartlariga mos keladigan darajaga ko'tarish buyuk vazifalardan biri. Shu bois aynan metodlar borasida ham juda ko'p yangiliklar yaratilmoqda. Xususan bir qancha zamonaviy metodlar kirib kelmoqda. Masalan: "Zinama-zina", "Charxpalak", "Davra suhbat", "Muzqaymoq", "O'rgimchak", "Baliq skeleti", "BBB", "A4 format", "Chehralar", "Qor bo'roni", "Telefon" va boshqalar. Bu metodlar bolalarni o'yin orqali mavzuni oson o'rganishiga yordam beradi. Masalan: "Zinama-zina" metodini olaylik. Bu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, to'plangan bilimlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishida ifodalay olishga o'rgatadi. Bu metodning ijobiy tomonlarini aytadigan bo'lsak, bunda mavzu bo'yicha savol-javob o'tkaziladigan bo'lsa, o'quvchiga avval soddaroq ko'rinishdagi savollar beriladi, keyin o'rtacha qiyinlik darajadagi savollar beriladi, so'ngra savollar ko'payib, murakkablashib boradi. Bunda o'quvchini bilimni birdaniga sindirmasdan, uning bilim darajasini yanada yoritib berishga qaratilgan bo'ladi. Yana bir metod turi bu "Carxpalak" haqida ham so'z yuritadigan bo'lsak, bu mashg'ulot uchun bolalar 4-5 tadan kichik guruh bo'lishadi va ularni har biriga 1 donadan oppoq qog'oz tarqatiladi, so'ngra bir xil savol beriladi. Barcha ishtirokchilar og'zaki fikr almashmasdan, o'zlarining varoqlarida savollarga bo'lgan javoblarning o'z-o'zidan aqlga kelib qoladigan ifodalarini yozadilar. Ifodalar yozilgan varoqlar vaqt tanqisligi sababli soat millarining harakatlanishi bo'yicha kichik guruhdagi qo'shnilarga uzatiladi. Bunday varoqni olgandan so'ng har bir ishtirokchi varoqda mavjud yozuvlarni takrorlamasdan, yangi yozuv kiritishi lozim. Har bir guruhdagi ishtirokchining ma'lumot yozgan varag'i yana o'ziga qaytib kelganidan so'ng

musobaqa yakunlanadi. Bu "metod"da yozuvlar tekshirilmaydi, tanlab olinmaydi va bahs-munozara ham qilinmaydi. Kichik guruhlarda ishtirokchilar tomonidan ifodalangan javoblar va takliflarning muhokamasi o'tkazilib, ularning eng muhimlari va dolzarblari yakuniy ro'yxatga kiritiladi. Kichik guruhlar ishlanmalarining natijalari bilan almashish. Kichik guruhlarning hammasi navbatma-navbat o'z ifodalarini ya'ni yozganlarini o'qib beradilar. Agar, bu ifoda yuzasidan boshqa guruhlar e'tiroz bildirmasalar u oxirgi ro'yxatga kiritiladi. Bu mashg'ulotning ijobiy tarafi taklif etilgan masalalarni izchil muhokama qilishni tashkil etish, so'ng jamoa bo'lib qarorni qabul qilish, bilimlarni dolzarblashtirish va mavjud tajribani aniqlashdan iborat. Yoki yana bir metodni olaylik. "Davra suhbat"i" metodi aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan o'quvchilar tomonidan o'z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o'qitish metodi. Bundan ko'zlangan maqsad bu metod orqali o'quvchilar berilgan mavzu bo'yicha qisqa va aniq holda o'zlarining bilimlarini ifodalay oladilar. Bundan tashqari ushbu metod orqali ta'lim oluvchilarni muayyan mavzu bo'yicha baholash imkoniyati yaratiladi. Ammo hayotda hamma narsaning ijobiy va salbiy tomonlari bo'lgani kabi bu metodlarning ham ijobiy taraflari bilan bir qatorda salbiy taraflari ham mavjud. Masalan yuqoridagi "Zinama-zina" metodini salbiy tomoni asosan o'quvchi savol-javob o'tkazilayotgan vaqtda biror savolga hayajonlanish ta'sirida javob berolmay qolsa, o'yinni tark etishi, ya'ni u o'z sohasini mukammal bilishiga qaramasdan, bilim darajasini namoyon qila olmasligidir. Metodlarning yana interaktiv va interfaol kabi turlari ham mavjud. Interfaol metodlar bu-ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Darslarda bu kabi interfaol metodlardan foydalanish ta'lim sifatini oshishiga yordam beradi. Interfaol ta'limning asosiy mezonlari: norasmiy bahs-munozaralar o'tkazish, o'quv materialini erkin bayon etish va ifodalash imkoniyatini samarali amalga oshirishda o'ziga xos ahamiyatga ega. Metodlarning ijtimoiy hayotdagi ta'siri to'g'risida bir necha asr muqaddam Alisher Navoiy o'zining mashhur «Mahbub ul-qulub» asari muqaddimasida shunday yozgan edi: "Umid ulkim, o'qig'uvchilar diqqat va e'tibor ko'zi birla nazar solg'aylar va har qaysisi o'z fahmu idroklarig'a ko'ra bahra olg'aylar...". Bu asarni har kim har turlicha tavsiflashadi ya'ni bu misralarda har kim o'z bilimi dorasida foyda, bilim olishi va uni amalga qo'llashi aytib o'tilgan. Interfaol usullarning an'anaviy usullardan asosiy farqlari to'g'risida yuqorida aytgan xulosalarimizni yanada qisqa qilib, o'quvchilarning fahmu idroklarini o'stirishdan iborat, deb ifodalashimiz mumkin. Bunda ta'kidlash lozimki, interfaol ta'lim usullari O'zbekistonda bilim olishga bo'lgan ehtiyoj, ta'lim-tarbiya jarayonida muallim bilan shogirdlar hamda o'qituvchilar bilan o'quvchilar o'tasidagi muloqotlarda muhokama, munozara, muzokara, mushohada, tahlil, mashvarat, mushoira, mutolaa kabi

shakllarda qo‘llab kelingan. Bu kabi usullar o‘quvchilarning zehni, salohiyatini, zakovatini, tafakkurini kengaytirib boradi. Jamoa bo‘lib fikrlash metodi- interektiv metod turi ham deyiladi, ya‘ni o‘qituvchining o‘quvchilarga ta‘sir etish usullaridan biri hisoblanadi. Bu usullarning o‘ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o‘quvchilarning birgalikda faoliyat ko‘rsatishi orqali amalga oshiriladi. Boshlang‘ich sinflarga ona tili o‘qitish metodikasi boshqa pedagogik fanlar qatorida o‘quvchilarga boshlang‘ich til asoslarini o‘rgatish, adabiy ta‘lim orqali borliq va jamiyat haqida tushuncha berish, o‘quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, kamol toptirish kabi amaliy ishlar nazariyasidir. Hozirgi zamon talablaridan yana biri bu - pedagogning kreativ bo‘lishidir. O‘qituvchining kreativligi o‘z tajribasini qayta ko‘rib chiqish va yaxshilashi hammaga ma‘lum narsalarni o‘zgartira olishi va ijodiy foydalana olishi, sifat jihatdan yangiliklarni yaratishi juda katta ahamiyatga ega bo‘lib bormoqda. Kreativlik tushunchasi-ingliz tilidan tarjima qilinganda ijod ma‘nosini anglatadi. Barcha sohalarda bulgani kabi dars o‘tish jarayonlarida ham mavzuga kreativlik bilan yondashsa, hammaga ma‘lum bo‘lgan metodlardan emas, balki yangicha kreativ metodlardan, usullardan foydalansa o‘quvchilar darsga o‘zgacha qiziqish bilan quloq solishadi. Agar bir xil narsalardan, uslublardan foydalansa dars biroz zerikarli bo‘lib qolishi mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni ta‘kidlash lozimki, ta‘lim va tarbiya bir vaqtning o‘zida parallel ravishda olib borilsa, milliy qadriyatlar bilan chambarchas aloqadorlik tizimi asosida jahon tajribasining eng sara metod va usullaridan foydalangan holda tashkil etilsa har bir fanning oldiga qo‘ygan maqsad va vazifalari o‘z o‘rnida bo‘lishini ta‘minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matchonov S. Boshlang‘ich sinflarda ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent-2021.
2. O‘zbekiston milliy entiklopediyasi. Toshkent- 2003.
3. Milliy istiqlol g‘oyasi:asosiy tushuncha va tamoyillar. Toshkent- 2000.
4. Ganiyeva M.A. Fayzullayeva D.M. O‘qitishning pedagogik texnologiyalari to‘plami. Metodik qo‘llanma. Toshkent- 2013.
5. Ganiyeva M.A. Fayzullayeva D.M. Nazariy va amaliy o‘quv mashg‘ulotlarda o‘qitish texnologiyalari to‘plami. Toshkent- 2013.
6. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi.O‘quvchi ma‘naviyatini shakllantirish. Toshkent- 2000.
7. Karimov S. Nutq madaniyati. Samarqand- 2020.
8. Mamatova G. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida adabiy tushunchalarni shakllantirish metodikasi. Toshkent- 2010.